

BOSHLANG'ICH SINFLARDA AMIR TEMUR G'OYALARINI O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Sanoyev G'aybullo Abduraxmonovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'qish darslarida o'quvchilarga Amir Temur shaxsi va uning qudrati, inson sifatidagi fazilatlarini, davlat boshqaruvida olib borgan siyosati haqida bilim berish, uning ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalaridan foydalanish, insonlarga munosabat, bilim olishning ahamiyati, inson kamolotida undagi jismoniy va axloqiy sifatlarning ahamiyati haqida o'rgatishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limiy-tarbiyaviy g'oyalar, shaxsiy sifatlar, inson kamoloti, adolat, kompetentli shaxs, tuzuklar, hadislar, davlat boshqaruvi, maqsad, xulq.

Annotation: This article provides recommendations for teaching elementary school teachers in reading lessons about the personality of Amir Temur and his power, his qualities as a person, his policies in public administration, the use of his educational and educational ideas, the attitude towards people, the importance of obtaining knowledge, the importance of physical and moral qualities in him in human perfection.

Keywords: Educational-educational ideas, personal qualities, human perfection, Justice, competency personality, structures, hadiths, public administration, purpose, behavior.

Аннотация: В этой статье даны рекомендации учителям начальных классов по обучению на уроках чтения, чтобы дать учащимся знания о личности Амира Темура и его силе, человеческих качествах, политике, проводимой в государственном управлении, использовать его образовательные и образовательные идеи, об отношении к людям, о важности приобретения знаний, о важности физических и моральных качеств в совершенстве человека.

Ключевые слова: Воспитательные идеи, личностные качества, созревание человека, справедливость, компетентная личность, структуры, хадисы, государственное управление, цель, поведение.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni ajdodlar hayoti va ijodi bilan tanishtirishga oid mavzularni o'tishda o'qituvchilar darsning mazmunini yanada boyitish, uni qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirish, yangi bilimlarga ega bo'lish, axbarotlarni izlab topish va o'quvchilar yoshiga moslarini tanlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak. Bunda ularga o'z ustida ishlash, ilg'or tajribalarni o'rganish, xorij tajribalarni milliy dastur bilan integratsiyalash, internet sahifalaridan foydalanish, turli adabiyotlarni tahlil qilish, kino va multfilmlarni namoyish qilish kabi faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishlari talab etiladi.

Quyida biz sohibqiron Amir Temurning ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalaridan dars jarayonida foydalanishga oid tavsiyalarni keltiramiz:

Amir Temurning ta'limiy g'oyalarida shaxsning ongini to'g'ri shakillantirish alohida o'rin tutadi. Buning uchun u shaxsda "o'ziga ishonch uyg'otish" tamoyiliga amal qilgan. Unga ko'ra, shaxs o'z layoqati, imkoniyati va shijoatiga ishonishi kerak, shunda u bilim olish, bilmagan narsalarini o'qib - o'rganish va o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yishga intiladi. Layoqat har bir kishi tabiatida mavjud bo'ladi, faqat u rivojlantirilishi kerak; imkoniyatni shaxs o'z intilishi va harakati bilan yaratadi; shijoat esa maqsad-muddaoning hosilasidir. Amir Temurning fikricha o'qub - o'rganishga intilgan kishiga "shirinso'z va ochiq yuz bilan" munosabatda bo'lishi kerak. Bunday munosabat albatta shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi, unga ruh beradi. Sohibqironning fikricha, yana shaxs o'z maqsadiga erishish uchun o'n ikki narsaga qat'iy amal qilishi kerak, bular:

- 1) E'tiqod;
- 2) Odamlarga ishonish;
- 3) Qonunga itoat qilish;

- 4) Maslahatlarni tinglash;
- 5) Halol mehnat;
- 6) Adolatli bo‘lish;
- 7) Kichiklarni izzat, kattalarni hurmat qilish;
- 8) Shijoatli bo‘lish;
- 9) Xalqparvar bo‘lish;
- 10) Yaxshilikka intilish;
- 11) Do‘st tutish;
- 12) Molparast bo‘lmastlik.

Albatta, bularga amal qilgan kishining aqlli shaxs sifatida voyaga yetkazishga kafolot bor. Negaki e‘tiqod kishining tafakkurini charxlaydi, odamlarga ishonish o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi, qonunga itoat qilish faoliyat samaradorligini oshiradi, maslahatlarni tinglash to‘g‘ri va sog‘lom harakat qilish garovidir, halol mehnat shaxsning o‘zliging mustahkamlaydi, adolatli bo‘lish yuksak axloqiylikka asos bo‘ladi, kichiklarni izzat – kattalarni hurmat qilish har bir kishiga munosib munosabatda bo‘lishdir, shijoatli bo‘lish maqsadga yetishish kuchi, xalqparvar bo‘lish mazmunli faoliyat asosi, yaxshilikka intilish majburiyatni his qilish, do‘st tutish jamoaparvarlik va molparast bo‘lmastlik esa nafs quliga aylanmaslikdir. Biroq, asosiy masala ularga amal qilishdadir. Misol uchun, o‘zgalarni do‘st deb bilishni olaylik. Buning uchun kishining bag‘ri keng va fikru o‘ylari pokiza bo‘lishi kerak. “Kim menga,-deydi Amir Temur, - do‘stlik qilsa qadrladim, unitmadim va muruvvat, ehson, izzat – ikrom ko‘rsatdim”. Demak, bunday yo‘l tutish shaxsni aqliy va ma‘naviy jihatdan ulg‘aytiradi, uning ongini, fikru o‘ylarini to‘g‘ri yo‘naltiradi.

Ta‘limiy g‘oyalar Amir Temurning ommoviy faoliyatida ham o‘z ifodasini topgan. U barcha bunyodkorlik ishlari qatorida “Har bir shaharda maktabu madrasalar qurishni buyurgan” ligini takidlaydi. Bunday amaliy ishlar natijasida Temuriylar davrida bilim olish yuksak pog‘onaga ko‘tarilganligi va ilmu fan, madaniyat behad darajada rivojlanganligi ma‘lum. Amir Temur “Aqlli va shijoatli kishilar”ni o‘z tarbiyasiga olganligini so‘zlaydi. Uning nazarida, aql va shijoat shaxs kamoloti uchun muhim unsurdir. Bundan tashqari, u “Kimki kasbu – hunar va ma‘rifat ahlidan bo‘lsa, bundaylarga saltanatda biror ish berish” to‘g‘risida buyruq bergan. Umuman, Amir Temur ongli, aqlli, kasb – hunarli va shijoatli shaxslarni qadrlar, ularga imkon qadar sharoit yaratib berishga intilar edi.

Amir Temurning tarbiyaviy g‘oyalarida tajribaga asoslanish muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, tajribalarni kuzatish va ulardan ibrat olish tarbiya ishida katta ahamiyatga ega. Shu manoda Amir Temur o‘z fikrlarini “Tajribamda ko‘rdimki” degan ibora bilan boshlaydi. Bir o‘rinda deydi: “Tajribamdan ko‘rdimki, o‘tmishning, garchi har bir ishning qanday yakunlanishi tajribaga bog‘liq bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishi mulohazakorlik, tadbir va kengashga tayanishi kerak”. Aynan mana shu mulohazakorlik, tadbirlilik va maslahat tarbiya ishida muhim hamiyatga ega. “Temur tuzuklari”ni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur mol-dunyoga o‘chlik, hasad, g‘araz, xiyonat, ziqnalik, johillik kabi illatlardan hazar qilgan. Aksincha, u yurtparvarlik, raiyatparvarlik, adolatparvarlik, shijoatlik kabi sifatlarni xush ko‘rgan.

Amir Temurning tarbiyaviy g‘oyalarida “Do‘st – dushman orasida muomala va murosayu – madora qilish” asosiy tamoyil hisoblanadi. Buning ma‘nosi shuki, tarbiya ko‘rgan shaxs do‘stu – dushmanga kechirimli muomalada bo‘ladi va ular bilan murosaya qilib o‘zining ahloqli ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli professor U. Mahkamov Amir Temur haqida so‘zlab deydi: “Amir Temurning ko‘p xususiyatlari yoshlarga ibratlidir, yaxshi fazilatlariga erishmoqchi bo‘lgan odam yoshlikdanoq insof, adolat, iymon, e‘tiqod kabi tushunchalarni doimiy hayotiy zarurat deb bilishi va unga amal qilishi lozim”. Muomala va murosaya shaxsning yuksak axloqiyligidan dalolat beradi. Chunki bu ikki tamoyil bag‘rikenglik, olijanoblik, viqorlik kabi sifatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Bizning nazarimizda, aynan muomala va murosaya Amir Temur nomini shukuhli va shavkatli nomga aylantirgan.

Do‘stu – dushman orasida insoniy muomala va murosayu – madorada bo‘lishga Amir Temurning o‘zi ko‘p ibratlar ko‘rsatgan. Bunga do‘stu - dushmanni va yaxshi – yomonni farqlay olish qoidasiga amal qilgan. “Ko‘p hollarda, - deydi u, - hasadchilar va g‘iybatchilar o‘z niyatlarini amalga oshirish

uchun yolg'on to'qib uni chinday qilib ko'rsatadilar". Shu manoda tarbiya jarayonida shaxsga farqlay olish ko'nikmasini shakllantirish kutilgan samarani beradi. Buning uchun shaxsni yoshlikdan oqu qorani tanitib borishga eng maqbul yo'llaridan biridir. Bu borada Amir Temur yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor bergani va eng muhim vazifalarni yoshlarga ishonib topshirgani to'g'risida Ispaniya qiroli elchisi Rui Gansanles de Klavixo (XIV asr) o'z "Kundaliklar" da havas bilan yozib qoldirgan. Bundan tashqari, Amir Temur o'z atrofiga tarbiya ko'rgan "asli toza, aql- farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldi – ketini o'ylab ish tutadigan kishilarni" yiqqanini yozadi. Bunday kishilarning ishonchga sazovor bo'lishi tabiiydir. Bu borada ham Amir Temur ibrat bo'la oladi.

Ma'lumki, Amir Temur o'z faoliyatida o'n ikki tamoyilga amal qilgan va bizning nazarimizda, mazkur tamoyillarni uning asosiy tarbiyaviy qoidalari sifatida qabul qilish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) O'z so'zida turish;
- 2) Adolatli bo'lish;
- 3) Erkin harakat qilish;
- 4) Qatiyatli bo'lish;
- 5) Ijrochi bo'lish;
- 6) O'z vazifasini bilish;
- 7) Maslahatni hush ko'rish ;
- 8) Yaxshi – yomonni farqlash;
- 9) Sahovatli bo'lish;
- 10) Aniq harakat qilish ;
- 11) Uddaburon bo'lish;
- 12) Hushyor bo'lish.

Bular o'z navbatida ana shu sifat – fazilatlarni egallashni ham taqozo etadi.

Zero, Amir Temurning ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalari real xususiyatlarga ega ekanligi bilan diqqatni tortadi. U ko'p hollarda o'z malakasi va tajribasidan kelib chiqib fikrlaydi. Shu jihatdan uning qarashlaridagi ta'lim-tarbiyaviy g'oyalar hayotiy omillarga ega. Misol tariqasida quyidagi holatni keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amir Temur o'z yurishlarining birida bir qishloqdan o'tayotgan paytda 80 yoshlar atrofidagi cholning ko'chat ekayotganligini ko'rib to'xtaydi. Amir Temur navkarlaridan biriga cholni chaqiribkelishni buyuradi. Chaqirib kelgan qariya chol odob bilan amirga salom berib, savol nazari bilan unga boqadi.

Amir Temur qariya cholga savol beradi: "Ey qariya chol ekayotgan nihollaring qaysi mevoning ko'chati edi".

Qariya chol ta'zim qilib yong'oq ko'chati ekayotganligini aytadi.

Amir Temur so'radi: Bu tog'li iqlimda yong'oq ko'chati necha yilda hosilga kiradi. Qariya chol 20 yilda hosilga kiradi, deb javob beradi. Shunda Amir Temur kinoya bilan tabbasum qilib qariya cholga "Balkim uning mevasidan ham umidvordursan?"

Qariya chol qayta ta'zim qilib, ey amirim, bobolar ekdilar biz yedik. Endi biz ham nevaralar oldidagi qarzimizni uzib ekib ketsak, mevasini ular yeydi. Bu so'z Amir Temurga ma'qul kelib xazinadorga buyuradi. Qariya cholga bir zarbop to'n va besh tillo tanga beradi. Ehsinni qabul qilib olgan qari chol Amir Temurga yana bir ta'zim qilib "Ey amirim mana mening ekkani ko'chatlarim hosil berdi va uning mevasini men terdim", deb javob beradi.

Amir Temur zavqlanib kuladi va buyuradi. Qari cholga yana bitta zarbop to'n va besh tillo tanga berilsin.


Chol o'ta mamnunlik bilan sovg'ani qabul qilib, Amir Temurga yana bir chiroyli ta'zim bajo keltiradi. "Ey amirim, hammaning ekkani daraxt ko'chati bir yilda bir marta hosil bersa, mening ekkani ko'chatlarim bir yilda ikki marta hosil berdi ". Amir Temur bu so'zdan yana zavqlanib kuladi va qari cholga jiddiy qarab, faqat hech narsa dema deydi. Keyin yana xozinadorga buyuradi. Cholga yana bitta zarbop to'n va yettita tillo tanga bering. U shunday deb otiga ildam minadi-da jo'nab ketadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur jiddiy va badjahl odam bo‘lishi bilan birga saxiy, odamlarning mehnatining qadrini biladigan inson ekanligini ko‘rish mumkin

Amir Temurning qarashlarida pedagogik g‘oyalar haqida gapirganda uni yaxshi bilgan shaxslarning baholarini ham hisobga olish lozim bo‘ladi. Bu borada uning topshirig‘i bilan “Zafarnoma” asarini yozgan Nizomiddin Shomiyning (XIV asr) mana bu fikrlari e‘tiborni tortadi: Amir Temur “Adolatli, eng ximmatli ulug‘ amir. Uning adolati siyosatuz jazoga yaqin, qahri esa lutfga aralashdir. Har bir kishini fazli va donishmanligi darajasiga loyiq moqomga qo‘yadi. Mashoyihlar va solih bandalarni ulug‘laydi, ular bilan hamsuhbat va hammaslak bo‘lishga rag‘bat ko‘rsatadi. Ojiz kishilaru raiyatni, sovdagaru dehqonlarni muhofaza etishga rag‘bat ko‘rsatadi, qonunlarga rioya qilib, adolat rasmini bajo keltiradi”. Demak, Amir Temur yuksak darajada ta‘lim tarbiya olgan shaxslardan biridir.

Bunday yuksak baho Ispaniya qirolu yelchisi Rui Gonsales de Klavixo tomonidan ham berilgan. U bir o‘rinda yozadi: “Temurbekning asl ismi biz ataganimizdek Temurlan emas, Temurbekdir, chunki Temurbek “ularning (turkiylarning) o‘z tilida “Temurpodsho” degani, “podsho” ularning tilida “Bek” deyiladi”. Klavixo fikrida davom etib deydi: “Samarqand shahrida adolatga amal qilinadi. Hech kim podshohdan (Amir Temurdan) beizn birovgu ozor yetkazish yoki zo‘rovonlik qilishga jur‘at eta olmaydi. Uning muxriga “Rostu-rustu” (kuch-adolatdadir) degan so‘z yozilgan bo‘lib, o‘rtasiga joylashtirilgan bodom shaklidagi uch belgi qiyos etilgan. Bunday shaxsning yuksak darajada g‘oyalarga ega bo‘lishi haqiqatdan yiroq emas”.

Shunday qilib, Amir Temur qarashlarida pedagogik g‘oyalar tizimini umumlashgan tarzida quydagicha tasvirlash mumkin



1-jadval. Amir Temurning pedagogik qarashlar tizimi

Amir Temurning pedagogik g‘oyalari ifodalangan fikrlardan namunalar

Millatning dardiga darmon bo‘lmoq vazifangizdir.

Ishbilarmon, mard va shijoatli bo‘l.

Qilmoqchi bo‘lgan ishlarni albatta bajar.

Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni gapirsa, suyinib eshit.

Adolat va insof bilan odamlarni o‘zimga rozi qildim.

Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

Olimlar bilan ishil suhbatda bo‘l.

Pok niyatli va toza qalbli kishilarga talpin.

Xush axloqli va ma'qul sifatli kishilardan ibrat olib, unga amal qildim.

Ulug'larni , ota va kichiklarni farzand qatorida ko'rdim.

Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni o'z yomonlariga topshirdim.

Saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk (qonun) asosida bajardim.

Har bir shaharga olimlar va mudarrislar (o'qituvchilar) tayinladim.

Ochiq yuzlik va rahm-shafqat bilan odamlarni o'zimga rom qildim.

Yuqorida bayon etilgan Amir Temurning ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalari, uning tuzuklarida keltirilgan hikmatlarini o'rgatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish har bir o'qituvchi uchun muhim hisoblanadi. Yosh avlodni barkamol voyaga yetkazishda mutafakkir ajdodlarimizning ibratli qarashlari, faoliyati va qoldirgan merosi muhim manbalardan hisoblanadi. Shu jihatdan amir Temur qarashlarida o'z ifodasini topgan pedagogik g'oyalar ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalada quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin:

-Амир Темур шахси биз uchun "Aql-idrok, adolat va yusak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etish bilan qadrlidir";

-Amir Temur qarashlaridagi pedagogik g'oyalar o'z asari "Tuzuklar" va u bilan bevosita uchrashgan kishilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu borada ayniqsa, Nizomiddin Shomiyning va Klavihoning asarlarida bevosita uning fikrlari keltirilganligi e'tiborga sazovor;

-Amir Temur qarashlaridagi pedagogik g'oyalar negizini bilib olish maqsad – muddaoga ega bo'lish, zaruriy kasb-hunarni egallash kabi ta'limiy g'oyalar va murasoyu - madoralar, adolat, shijoat singari tarbiyaviy g'oyalar tashkil etadi;

- Amir Temur qarashlaridagi pedagogik g'oyalardan o'rganish, o'zlashtirish va kompyuter tizimi kabi texnologiyalar vositasida foydalanish mumkin;

- Amir Temur qarashlaridagi pedagogik g'oyalar shaxsni aql-idrokli, adolatli, ma'naviyatli, murosayu-madoraga amal qiluvchi kishi sifatida voyaga yetkazadi.

-Yosh avlodni voyaga yetkazish kishida Amir Temurning siymosi va siyratini chuqur o'rganib, amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomiy Nizomiddin. "Zafarnoma"- T.: O'zbekiston. 1996.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: 2009.
3. Amir Temur o'g'itlari. –T.: O'zbekiston. 2007.
4. Ahmedov A. "Temur Tuzuklari haqida ikki og'iz so'z" //Temur Tuzuklari. T.: G' G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti . 1996-yil. 3-22-betlar.
5. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: «G'.G'ulom nashriyoti», 2004 – 200 bet.
6. Hasanboyev J va boshqalar. Ma'naviy – axloqiy tarbiya asoslari. – T.: «G'.G'ulom nashriyoti», 1998 – 60 bet.